

CHIZMA GEOMETRIYA MASHG'ULOTLARIDA PARALLEL HARAKATLANTIRISH USULINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY TEHNOLOGIYALARNI QO'LLASH METODIKASI

Jamilova Dilsuza To'liq qizi

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani 39-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15388569>

Annotatsiya: Ushbu chizma geometriya mashg'ulotlarida parallel harakatlantirish usulini o'rgatishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash metodikasi nomli tezisning dolzarbligi shundaki bugungi kunda chizma geometriya darslarida o'quvchilarni ijodiy jarayonga o'quv jarayonida kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish hozirgi kunning dolzarb usullaridan hisoblanadi chizma geometriya darslarida multimediyadan foydalanib, ortogonal proyeksiyalarni qayta tuzish usullarini ko'rsatib berish, talabalarda ijodiy jarayonga yo'naltirish, fazoviy tasavvurni rivojlantirish, mantiqiy fikrlash, geometrik o'lchash va yasashning amaliy usullarini o'rganish imkoniyatlarini beradi. Asosiysi, multimedia dasturi asosida (animatsiya)lardan foydalanilgan holda chizma chizish, diagramma, jadval ko'rinishidagi ma'lumotlarni o'qish qobiliyatini rivojlantiradi, mustaqil o'qish va o'rganishga imkoniyat yaratadi.


Kalit so'zlar: chizma geometriya, proyeksiyalash, joylashtirish, multimedia, tezis.

Muammoning dolzarbligi. Muammoning dolzarbligi shundaki, chizma geometriya darslarida ortogonal proyeksiyalarni qayta tuzish usullari birmuncha katta va qiziq mavzulardan hisoblanadi. Mana shu mavzularda chiziladigan har bir chizmani hozirgi zamonaviy texnologiyalar yordamida chizish mavzuning birmuncha tushunarli bulishiga olib keladi.

Kirish: Respublikamizda xalq xo'jaligini rivojlantirish, fan-texnika, kompyuter texnologiyasi va xalqaro «INTERNET» axborot tizimini yanada yuksaltirish maqsadida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish masalasi qo'yildi. Ayni paytda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bunga amaliy javob bo'lib, oldimizga ulkan vazifalarni qo'ydi. Bu vazifalarni bajarishda Oliy o'quv yurtlari, o'z ixtisosligi bo'yicha chuqur nazariy bilimlarga va puxta amaliy malakalarga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlab yetishtirish vazifasini o'z zimmasiga oladi. Zamonaviy, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlash uchun oliy o'quv yurtlarida kasbiy ta'lim yo'nalishlari ochilib, unda malakali muhandis-pedagoglar tayyorlash masalasi qo'yildi va unga erishilmoqda. Shu maqsadda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib, o'quv jarayonini qiziqarli tashkil qilish, mavjud darsliklar qatorida, talabalarning bilim darajasini oshirish maqsadida zamonaviy eliktiron dasturlaridan ham foydalanilmoqda bu esa samarali natijalar bermoqda.

Asosiy qism: Ma'lumki, o'rta maktab chizmachilik kursida proyeksion chizmachilik bo'limini o'qitishni birinchi soatidayoq Monj apparatida tasvirlanadigan jism proyeksiya tekisliklari H, V, W ga nisbatan xususiy vaziyatda, ya'ni jism qirra va yoqlarining aksariyati proyeksiya tekisliklariga nisbatan perpendikular yoki parallel vaziyatda joylashtirilib, proyeksiyalash qabul qilingan. Shuning uchun jism umumiy vaziyatda berilganda ham u avvalo, tasavvur qilinib, fikran xususiy vaziyatga keltiriladi va so'ngra proyeksiyalanadi. Bu hol paralleloped misolida ko'rsatilgan. Bu shakldagi a, b va d tasvirlar parallelepipedning umumiy, e tasvir esa xususiy vaziyatidir. Bundan ko'rinayaptiki, tasvirni almashtirishdan

foydalanish o'rtta maktabdan boshlangan. Bu esa tasvirni almashtirish mavzusi qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shu sababli bu mavzu chizma geometriya kursida batafsil o'rganiladi. Umumiy BC qirraga ega bo'lgan $BCA(bca, b'c'a')$ va $BCE(bce, b'c'e')$ uchburchak tekisliklari orasidagi ikki yoqli burchakning haqiqiy kattaligi tekis parallel ko'chirish usuli orqali KOMPASda aniqlaymiz



Xulosa: Zamonaviy usullar orqali talabalarga ortogonal proyeksiyalarni qayta qurish usullarini o'rgatganda talabalarga darslar ancha tushunarli bo'lib dunyoqarashlarini o'sganligini va masalalar yechish birmuncha osonlashganini kuzatdik. Masalan parallel harakatlantirish usulida o'qlarni chizishda dasturning aniq, tez va ravon chizishi, aylantirish usulida ham aylana chizish serkuldan kura tez va oson bitta buyruq yordamida chizilishi talabalarga chizmalar chizishlarida birmuncha qulayliklar yaratdi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'limto'g'risidagi" Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 1997 yil 29 avgust
2. Murodov Sh., Hakimov L., Odilov P., Shomurodov A., Jumaev M. Chizma geometriya kursi. -T.: O'qituvchi, 1988.
3. Shermuxamedova N. A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. T., - "Innovatsiya-Ziyo", 2020
4. <http://www.ziyounet.uz>